

# "Navoiyazot" AJ uchastka boshlig'i Safarov Sunnatillo Suyunovich "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi

// 30.08.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/safarov-sunnatillo-suyunovich-dustlik-ordeni-bilan-taqdirlandi>



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz bir yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha soha va tarmoqlarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash, Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirishga qo'shgan munosib hissasi, ilg'or innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo totuvlikni asrab-avaylash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlaridagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatining Polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi uchastka boshlig'i **Safarov Sunnatillo Suyunovich "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.**